



UDK 801.7

Gulmira BOZOROVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: gmaa916147@gmail.com

BuxDU dotsenti, f.f.d (Dsc) G.A.Astanova taqrizi asosida

LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF PLEONASTIC UNITS USED IN POLITICAL SPEECH

Annotation

In this article, the linguopragmatic features of pleonastic units formed on the basis of the principle of redundancy are analyzed, and the main attention is focused on the expressions found in political speech. In addition to the peculiarities of the manifestation of the political speech in the discourse, the pleonastic combinations used in this speech are explained one by one and proved by examples in the dictionaries. Also, although at first glance it seems that there is redundancy and meaningful repetition in these units, conclusions are given that they perform a certain methodological task from a pragmatic linguistic point of view.

Key words: Redundancy, pleonasm, pleonastic unity, political speech, discourse, pragmalinguistics, methodological task.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЛЕОНАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности плеонастических единиц, образованных по принципу избыточности, и основное внимание сосредоточено на выражениях, встречающихся в политической речи. Помимо особенностей проявления политической речи в дискурсе, используемые в этой речи плеонастические сочетания последовательно объясняются и доказываются примерами в словарях. Также, хотя на первый взгляд кажется, что в этих единицах присутствует избыточность и осмысленный повтор, делаются выводы о том, что они выполняют определенную методологическую задачу с прагматической лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: Избыточность, плеоназм, плеонастическое единство, политическая речь, дискурс, прагматическая лингвистика, методологическая задача.

SIYOSIY NUTQDA QO'LLANGAN PLEONASTIK BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ortiqchalik tamoyili asosida shakllanuvchi pleonastik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, asosiy e'tibor siyosiy nutqda uchraydigan ifodalarga qaratilgan. Siyosiy nutqning diskursda namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklar bilan bir qatorda, mazkur nutqda qo'llangan pleonastik birlikmalar birma-bir izohlangan, lug'atlardagi misollar bilan dalillangan. Shuningdek, ushbu birliklarda bir qarashda ortiqchalik, mazmuniy takror mavjuddek ko'rinsa-da, pragmalingvistik jihatdan ular muayyan uslubiy vazifa bajarib kelishi haqidagi xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ortiqchalik, pleonazm, pleonastik birlik, siyosiy nutq, diskurs, pragmalingvistika, uslubiy vazifa.

Kirish. Siyosiy nutq insoniyatning ijtimoiy-siyosiy turmushida kundalik duch keladigan hodisasi hisoblanadi. Jamiyat hayoti qanchalik ochiq va demokratik bo'lsa, siyosat tiliga ham shunchalik e'tibor qaratiladi. Hayotimizda ro'y berayotgan turli ijtimoiy-siyosiy hodisalar, siyosiy olamning turli yangiliklari, siyosiy maydonda ro'y berayotgan voqealar bilan bayoni va ularning talqini bevosita siyosiy nutq bilan aloqadordir. Siyosiy nutq siyosat sohasi mutaxassislari, jurnalistlar va siyosatchilarning, shuningdek, eng keng fuqarolar jamoasi uchun qiziqish uyg'otadi. Siyosiy nutq – ta'sir kuchining yuqori darajasi bilan ajralib turadigan maxsus muloqot turi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda siyosiy muloqot mexanizmlarini aniqlash va ularni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Siyosatchilarning nutqlarini tahlil qilib, tinglovchilarni ishonitirish uchun ular tomonidan qo'llaniladigan so'zlar orqali bahslashish strategiyasi va taktikasini aniqlash mumkin. Siyosiy nutqlarni o'rganish, bir tomondan, siyosatchining keyingi harakatlari va niyatlarini bashorat qilish imkonini bersa, boshqa tomondan, tinglovchilarga ta'sir qilishning eng samarali usullarini aniqlashga ham yordam beradi. "Nutqni o'rganishda asosiy e'tibor siyosatchining nutqiy niyatlari, ularni amalga oshirish strategiyasi va taktikasini hisobga olishdan iboratdir. Siyosiy rahbarlarning nutqiy xulq-atvorining eng muhim xususiyati - bu maqsadlarga erishish va tinglovchilarga hissiy ta'sir

ko'rsatishga yordam beradigan kommunikativ strategiyalar, uslublar va taktikalar"[13].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy nutq muloqotning institutsional turiga tegishli. Institutsional nutq deganda davlat muassasalarida olib boriladigan nutq tushuniladi, muloqot muayyan tashkilotning ajralmas qismi hisoblanadi. Siyosiy nutq davlatning, siyosiy tuzumning ajralmas bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, aksariyat hollarda siyosat tili takrorlar va ortiqchaliklardan holi tarzda voqelanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, ba'zi hollarda jamoatchilikka fikrni aniqroq yetkazish, tinglovchilarning e'tiborini ifodalayotgan tushunchaning muayyan xususiyatlariga qaratish maqsadida semantik takrorlar uchrab turadi.

Saylovoldi chiqishlarda, banner va afishalarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun va qarorlarini qabul qilish maqsadida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning ovoz berish jarayonlarini tashkil etish hamda ularni yoritish jarayonlarida umumxalq referendumini birikmasiga duch kelamiz. Jumladan, "Xalq so'zi" gazetasining muxbiri Botir Madiyorov tomonidan 14-iyul 2022-yilda "Qo'qon shahrida umumxalq referendumiga tayyorgarlik ishlariga kirishildi" nomli sarlavha bilan maqola chop etilgan. Sarlavhada ajratilgan birlik

pleonazm hodisasi sanalib, lingvistik jihatdan mazmuniy qavatlanishning namunasidir. Semantik takrorni aniqlash maqsadida lug'atga murojaat etamiz:

Referendum – (lotincha referendum - bildirilishi kerak bo'lgan) – umumxalq ovoz berish yo'li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli[14;380]. Referendum so'zining tub mohiyatida umumxalq muhokamasi orqali hal qilinishi zarur bo'lgan masala anglashilgani sababli qayta qo'llash ortiqchalikni yuzaga keltiradi. Nazariy tilshunoslik nuqtai nazaridan ushbu misol pleonastik birikma hisoblanib, nutqiy ortiqchalik sifatida baholanadi. Lingvopragmatik tahlilda esa nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib, tushunchani jamoatchilikka aniqroq yetkazib berish maqsadida o'rinli qo'llanilgan, deya izohlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning beshinchi sammitida so'zlangan nutqi xususida “Xalq so'zi” (online) gazetasi 2019-yil 15-iyunda “Shavkat Mirziyoyev: Xavfsizlik - bo'linmas, ishonch esa uning fundamental asosidir” nomi ostida maqola chop etilgan[18]. Maqolada keltirilgan “Bugungi kunda jahon ishonch inqiroziga yuz tutmoqda. Aslida, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi ishonch xavfsizlik va barqarorlikning eng muhim shartidir, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Nazarimizda, ishonch inqirozini bartaraf etish va xavfsizlikni mustahkamlash uchun birinchi navbatda inson kapitalini rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratish zarur. Shu munosabat bilan o'zaro hurmat va jamoaviy mas'uliyatga asoslangan kengashimiz faoliyati har qachongidan ham muhim bo'lib bormoqda. Davlatimiz rahbari xavfsizlik bo'linmas, ishonch uning fundamental asosi ekanini qayd etdi” jumalari orasida qo'llangan fundamental asos birikmasi pleonastik birlik hisoblanadi. Davlatimiz rahbari nutqlarida qo'llangan mazkur birikmani siyosiy nutqdagi pleonazmlar sirasiga kiritib, tahlilga tortish maqsadga muvofiq.

Fundamental – (lot. fundamentalis – asos (negiz) bo'luvchi asos qilib olinuvchi). 1. Asosiy, bosh, eng muhim. Fundamental kutubxona. 2. Chuqur tekshirilgan, asosli, teran. Fundamental asar. Fundamental bilimlar. Fundamental tadqiqotlar [15].

Yuqoridagi maqola sarlavhasi hamda undan ajratib olingan matn tarqibida uchraydigan fundamental asos birikmasida mazmuniy qavatlanish, ya'ni pleonastik hodisa mavjudligini O'TILda keltirgan so'zning izohi ham isbotlaydi. Chunonchi, fundamental so'zining mazmunida asos, asosli ma'nolari mavjudligi qayd etilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan qo'llangan bu birikma lingvistik jihatdan mazmuniy qavatlanish mavjud pleonastik birikma sanalsa-da, mazkur kontekstda siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidni kuchaytirish, ifodalananayotgan fikrning asosiy mohiyatini ko'rsatuvchi so'zga e'tiborni qaratish uchun ham maqsadli foydalanilgan.

Shuningdek, mamlakatimizning rasmiy nashri hisoblangan “Xalq so'zi” (online) gazetasi 2018-yil 28-dekabrda sonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi chop etilgan. Mazkur Murojaatnomada ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, shu bilan bir qatorda, davlat va xalq manfaatlariga oid boshqa ko'plab masalalar bayoni qayd etilgan. Siyosiy muloqot namunasi sanalmish ushbu Murojaatnoma matnida ham siyosiy nutqdagi pleonastik birikmani uchratish mumkin: “Hurmatli do'stlar! O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analarga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu –

bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”.

Konfessiya – (lot. confessio – tan olish, e'tirof etish) diniy ishonch, e'tiqod, mazhab[15]. O'TILda keltirilgan ushbu izohdan hamda siyosiy atamalar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, konfessiya so'zi faqat diniy sohaga taalluqlidir. Shu sabab ham mazkur so'zni diniy sifatlovchisi bilan qo'llash semantik takrorlanish sanaladi. Yuqoridagi birikma tilshunoslik nuqtayi nazaridan ortiqchalikni yuzaga keltirsa-da, siyosiy nutqda diskursiv talabdan kelib chiqib qo'llangan. Chunki konfessiya so'zi o'zbek tiliga lotin tilidan o'zlashgan atama bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi hamda atama sifatidagi mohiyatidan hamma ham xabardor emas. Murojaatnomada bu pleonastik birikmani qo'llashdan asosiy maqsad bu turdagi ifodalar ta'sir kuchini oshirish funksiyasiga ega bo'lganligi bois jamoatchilikka atamani tushunarliroq, aniqroq shaklda yetkazishda asosiy uslubiy vazifa bajarilmoqda.

Tahlil va natijalar. Siyosiy nutq bevosita siyosat olamini ko'rsatuvchi ko'zgu demakdir. Mazkur nutq siyosatga oid notiqlik nutqlari, qarorlar, qonunlar, farmonlar kabi siyosiy mavzudagi rasmiy matnlar, siyosatshunoslikka oid ilmiy maqolalar, gazeta va publitsistik materiallarda voqelanadi. Ushbu turlarning har birida siyosiy nutqning o'ziga xos maqsadlari yashiringan bo'ladi. Ba'zi o'rinlarda yuqorida sanalgan qonun hujjatlarida ham pleonastik birikmalar ko'zga tashlanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 26.12.1996-yildagi 337-I-son “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonunida siyosiy partiya birligi qo'llangan. Ushbu birikmaning so'zlarini lingvistik jihatdan tahlil qilsak, ma'noviy takror mavjudligi oydinlashadi. Buning uchun partiya so'zining O'TILdagi izohiga murojaat qilsak:

Partiya – (fr. - parti, lot – pars, partis – bo'lak, qism, guruh) g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlarini mushtarak bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy tashkilot[16].

Yuqoridagi izohdan ko'rinadiki, siyosiy partiya birikmasida mazmuniy takror mavjud. Shunday bo'lishiga qaramay, mazkur birlikda siyosiy so'zi aniqlik kiritish, mazmunni oydinlashtirish, birikmaning aynan qaysi jihatiga e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatib turuvchi vosita sifatida uslubiy vazifa bajarib kelmoqda.

Shuningdek, Yoqub Umar tomonidan 2020-yil 7-noyabrda chop etilgan siyosiy ahamiyat kasb etuvchi “Oktabr to'ntarishi: asli aza bo'lgan “bayram...” nomli maqolasida ham pleonazm hodisasini uchratish mumkin: “So'nggi o'n yilliklar davomida arxivlar ochildi, maxfiylik yorlig'i ko'plab hujjatlardan olib tashlandi, haqiqatga mos kitoblar va filmlar nashr etildi. Haqiqatni izlayotgan odamlar uchun yana bir narsa aniq bo'ldi: 1917-yil 7-noyabrda inqilobiy to'ntarish xalqlarga shu qadar ulkan qayg'u, shuncha musibat va falokatlarini keltirdiki, uni haqli ravishda “taqvimning qora kuni” deb atash mumkin” [12].

Yuqorida keltirilgan inqilobiy to'ntarish birligining pleonastik birikma ekanligiga O'TILda keltirilgan izoh yordamida ishonch hosil qilish mumkin:

Inqilob – (arabcha – o'zgarish; to'ntarish, isyon) 1. Umuman, jamiyat hayoti va uning sohalari bo'ladigan o'zgarish, tubdan o'zgarish. 2. Bir ijtimoiy tuzumni boshqasi bilan almashtirish orqali buladigan o'zgarish; to'ntarish. Ushbu izohdan ko'rinib turganidek, inqilob so'zining mohiyatida to'ntarish degan semasi mavjud. Shu sabab ham qayta to'ntarish so'zini takror qo'llash pleonazm hodisasiga to'la mos keladi.

Shuningdek, asosiy prinsip birikmasiga juda ham ko'p duch kelamiz. Jumladan, Namangan viloyat, To'raqo'rg'on tuman Xalq deputatlari kengashining oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha o'tkazilgan sessiyasida tuman prokurori Elyor Talaboyev tomonidan berilgan hisobotda mazkur birikma

qo'llangan: "Oziq-ovqat xavfsizligi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni bozorlarda belgilangan narxda sotish nazorat ostida turibdi. Ro'yxatdan o'tmagan, noqonuniy savdo olib borayotgan tadbirkorlar aniqlanmoqda. Ammo ularni jazolash maqsad qilinmagan. So'nggi yillarda jazolash mexanizmi prokuratura uchun asosiy printsip bo'lmay qoldi. Biz, asosan, tadbirkorlar bilan suhbatlashib, ularni qonuniy faoliyat yuritishiga ko'mak ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Iqtisodiyotni soyadan chiqarish uchun ish olib bormoqdamiz" [11].

Yuqorida ajratilgan birikma tarkibidagi prinsip so'zining izohi lug'atda quyidagicha keltiriladi:

Prinsip – (lot. principium – asos, negiz; ibtido) biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va sh.k. dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida. Qonunlarimizda saylov prinsiplari to'la va aniq aks etishi zarur. "Fan va turmush"[16]. Ushbu izohdan prinsip so'zining o'zida asosiy semasi mavjudligi oydinlashadi. Bu so'z o'zlashma bo'lgani sababli aksariyat hollarda uning lug'aviy ma'nosini to'liq bilmaslik natijasida

nutqimizga shunday pleonastik birliklar kirib keladi, shakllanadi. Prokuror nutqida qo'llangan pleonastik birikma o'rnida prinsip so'zi yakka holda sifatlovchisiz qo'llansa, nutqiy ortiqchalikning oldi olingan bo'lardi: "...So'nggi yillarda jazolash mexanizmi prokuratura uchun prinsip bo'lmay qoldi".

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, siyosiy nutq boshqa nutq shakllariga qaraganda qat'iy til me'yorlariga asoslangan, nutqiy g'alizliklardan nisbatan xoli lisoniy birliklar jamlanmasidir. Shunday bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda pleonastik birikmalar ko'zga tashlanadi. Siyosiy nutqda semantik takrorlarning qo'llanishi o'zlashma so'z hisoblangan atamalarining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda terminning lug'aviy ma'nosini to'la bilmaslik yoxud e'tiborsizlik natijasida pleonastik birikmalar nutqimizda qo'llanmoqda. Lekin ayrim pleonastik iboralar uslubning ko'tarinki bo'lishligi, adresatga bo'lgan hurmat-ehtiroمنىng yuqori darajada ekani kabi pragmatik omillar uchun ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Bozorova G.Z. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida o'rganilishi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 945-951.
3. Kadyrovna A.M., Zayniddinova B.G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.
4. Samandarova G.Y. Socially conditioned meanings of paremas formed on the basis of the lexical spiritual group "insects". Gospodarka i innowacje. Volume: 22 | 2022. –P. 443-446.
5. Samandarova G.Y. . (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2(05), 39–42. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-11>
6. Баранов А.Н., Казакевич Е.Г. Парламентские дебаты: традиции и новации. М.: Знание, 1991. С. 6.
7. Баранов А.Н., Казакевич Е.Г. Парламентские дебаты: традиции и новации. М.: Знание, 1991. - С. 8.
8. Бозорова Г. Илмий нуқтада учрайдиган айрим плеонастик birliklar таҳлили //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.
9. Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. –М.: Прогресс, 1989. – С. 121.
10. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса : Монография / Шейгал Е.И.; Рос. акад. наук. Ин-т языкознания, Волгогр. гос. пед. ун-т. - М. ; Волгоград : Перемена, 2000. - С. 22.
11. <http://m.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/tadbirkor-narxni-oshirgani-uchungina>
12. <https://azon.uz/content/views/oktyabr-tuntarishi-asli-aza-bulgan-bayra>
13. <https://maxkorzhnn.ru/uz/lingvisticheskie-osobennosti-politicheskogo-diskursa-politicheskii-diskurs-kak.html>
14. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf –Б.380
15. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf
16. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf –Б.229
17. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20I.pdf –Б.221
18. <https://xs.uz/post/shavkat-mirziyoyev-khavfsizlik-bolinmas-ishonch-esa-uning-fundamental-asosidir>